



JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'LKA IJTIMOYIY-MA'NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Kimsanova Gulira'no Zuxridin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Abdumuxtorova Madina G'ofurjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidlarning hayot yo'li, vatanparvarlik hissini uyg'otuvchi asarlari, milliy ozodlik yo'lidagi harakatlari va XX asrdagi Jadidchilik harakati g'oyalari va ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: jadid, taraqqiyparvar, mudarrislik, rus-tuzem maktabi, Sovet xukumati, SSSR, Markaziy Ijroiya Komiteti.

KIRISH

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: jadīd — yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim-tatarlar o'rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnatilgan o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Turkiston xalqining manaviyatini yo'q qilish va madaniyatini yo'qotish maqsadida hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash orqali oddiy xalqni bilim olib o'zligini anglab Sovet hukumatiga qarshi bosh ko'tarishidan qo'rqishgan.



Mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z "Xitobnoma" sida (1898) yaxshi bayon qilgan. Jadidlar millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar hisoblanib xalqning deyarli barcha tabaqalari-hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar mulkdor, ulamolar orasida mavjud bo'lgan. Jadidchilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar.

Ana shunday ma'rifatparvarlardan biri Mamudxo'ja Behbudiy edi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida Imom Xatib Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li xonadonida tug'ilgan. Behbudiy dastlab otasidan Qur'on ilmini o'rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida o'qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog'asi Mulla Odil o'zi mudarrislik qilgan madrasada o'qitib ta'lim bergan. M.Behbudiyning Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi uning keyingi hayotiga ta'sir katta ko'rsatdi. Behbudiy 1903-yilda Samarqandning Jomboy tumaniga qarashli Rajabamin qishlog'ida "Usuli savtiya" maktabini ochadi. Bu maktab Abduqodir Shakuriy xonadonida tashkil etilgan. Maktab o'quvchilarining katta qismi shahardan bo'lganligi va Rajabamin qishlog'iga qatnash qiyinligi sababli keyinchalik bu maktabni Behbudiy o'zining hovlisiga ko'chiradi. Shu davrda u maktab o'quvchilari uchun bir qancha darsliklar yaratgan. Birin-ketin maktabida taxsil oladigan o'quvchilari uchun "Risolayi asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Risolayi jug'rofiyayi umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906) kitoblarini chop ettirgan. Behbudiyning ushbu harakatlarini Sovet xukumatiga qarshilik deb hisoblagan rus ayg'oqchilari tomonidan 1919-yil Shaxrisabzda o'ldirildi.

Jadidchilikning yirik namoyondalarida yana biri ma'rifatparvar, shoir dramaturg, olim Abdulla Avloniy bo'lib, u 1878-yil 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida to'quvchilar oilasida tug'ilgan. Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. Arab, fors, rus tillarini o'rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o'qigan, ba'zilar (masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Ushinskiy asarlari) ni o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1906-yilda "Taraqqiy", 1907-yilda o'z uyida "Shuhrat" gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908-yilda yashirin ravishda "Osiyo" gazetasini nashr etdi. 6-sonidan so'ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo'ygan. Avloniy birinchi bo'lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o'qitish taklifini beradi. Ilg'or



g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o'zi Ona tili va adabiyotdan dars berdi. 1909-yilda "Jamiyati xayriya" tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Shu yili "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi bilan maktabxonalaridan farq qilgan. Avloniy yangi maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblar yozib, nashr qildirgan (masalan, "Birinch muallim", 1911; "Ikkinchi Muallim", 1912; "Turkiy guliston yoxud axloq", 1913; 4 juzd (qism) li "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami, 1909—1915; "Maktab gulistoni", 1915; "Mardikorlar ashuvlasi", 1917 va boshqalar). Munavvarqori Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov Nizomiddin Xo'jayev Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916) shirkatlarini tashkil etgan. Avloniy xalq ongini oshirish uchun teatr san'atidan ham foydalangan. U 1913-yilda "Turkiston" nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. 1910-1916-yillarda bir qancha sahna asarlarini tarjima qildi va o'zi sahnalashtirdi. Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda qo'yilgan. Avloniy Toshkentda 1934-yil 25-avgustda 56 yoshida vafot etgan va Botkin ko'chasidagi qabristoniga dafn qilingan.

Jadidchilikning yana bir yirik namoyondalaridan biri tarjimon, jamoat arbobi, tanqidchi Cho'lpon (asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov) 1897-yil Andijonda tavallud topgan Dastlab, madrasada (1908-1912), so'ngra rus-tuzem maktabida (1912-1914) o'qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo'li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirib borgan. Adabiy ijodi 1913-1914-yillarda Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida xabarlar yozish bilan boshlangan. 1914-yil Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo'jayev bilan tanishish Cho'lponning milliy uyg'onish harakati namoyandasi sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgan. Cho'lpon "Sadoi Turkiston" gazetasida dastlabki "Turkistonli qardoshlarimizga" she'ri, "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor" kabi hikoyalari va "Adabiyot nadir?", "Muhtaram Yozg'uvchilarimizga" maqolasini e'lon qilib (1914), shu davr adabiyoti namoyandalari safidan o'rin egallagan. Cho'lponning bu harakatlari Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko'rgani hisoblanadi. Cho'lpon boshqa jadidlar qatori o'z asarlari bilan xalqning madaniy va ma'rifiy saviyasini ko'tarishga kirishgan, ammo bu Rossiya mustamlakachilariga



yoqmagan. Jadidlarga qarshi boshlangan kampaniya Cho‘lponni ham chetlab o‘tmaydi. Ta‘qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg‘in ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketgan va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo‘lib ishlagan. Cho‘lpon 1937-yil 14-iyulda qamoqqa olinadi va 1938-yil 4-oktabrda Toshkentda Bo‘zsuv bo‘yida qatl etiladi.

XULOSA

Yuqorida aytilganidek jadidlarimiz uzoq o‘tmishdan beri ozodlik Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish va o‘zligi uchun jonlarini mollarini xatarga qo‘yib kurashishgan ularning harakatlari ila ana shu ozodlik atalmish buyuk ne‘matga sazovor bo‘ldik. Hozirgi kunda erkimiz o‘zligimiz o‘z qo‘limizda, xulosa shundaki, ana shu buyuk ne‘matni qadrlab o‘zimizdan keyingi avlodga hozirgi hur va kuchli mamalakatimizni topshirishdir. Buning uchun barcha yaratilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri va aniqlik bilan foydalanishimiz ham maqsad, ham oldimizdagi asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Jadidizm". Ensiklopedik lug‘at. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. p. 271.
2. "Jadidizm". O‘zbek sovet ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b.
3. Ahmedov Sirojiddin; Rajabov Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. Moskva - 1926.
5. R.Risqulov. Revolyusiya i korennoye naseleniye. Toshkent - 1926.